



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 6-iyun, seshanba,  
67 (23.788)-son

**KUN  
HIKMATI**

Tarbiya  
tafakkurni  
chorlaydi,  
tafakkur esa  
tarbiyalaydi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

# QATAR AMIRI TANTANALI KUTIB OLINDI



**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan 5-iyun kuni Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.**

Oliy martabali mehmonni Samarqand xalqaro aeroportida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev kutib oldi.

Ikki davlat bayroqlari va gullar bilan bezatilgan aeroportda Qatar Amiriga xalqimizga xos yuksak mehmondo'stlik ko'rsatildi. Boy milliy madaniyat va san'atimiz namunalari namoyish etildi. Kuy-qo'shiqlar ijro qilindi.

O'zbekiston va Qatar o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganiga 25 yildan ziyod vaqt o'tgan bo'lsa-da, ushbu mamlakat rahbari ilk bor yurtimizga davlat tashrifini amalga oshirmoqda.

Bu keyingi yillarda mamlakatlari-

miz o'rtasida ikki va ko'p tomonlama hamkorlik jadal rivojlanib borayotgan natijasidir. Jumladan, yaqinda Toshkent shahrida Qatar davlatining elchixonasi ochildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 5-iyun kuni qabul qilingan farmoni bilan Qatar fuqarolari uchun yurtimizda 30 kunlik vizasiz tizim joriy etildi.

Tashrif davomida O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Oliy darajadagi uchrashuvlar 6-iyun kuni o'tkazildi.

**Jahon banking Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha vitse-prezidenti Antonella Bassani boshchiligidagi delegatsiya 3-iyun kuni Samarqandga tashrif buyurdi.**

Samarqand temiryo'l vokzalida mehmonlarni viloyat hokimi o'rinbosari Rustam Qobilov kutib oldi.

Delegatsiya dastlab Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Samarqand filiali hamda Samarqand tumani Zaxlik mahallasida joylashgan Oqova suvlarni qayta tozalash inshooti faoliyati bilan tanishdi.

Ta'kidlash joizki, Oqova suvlarni qayta tozalash inshooti Jahon banki mablag'lari ko'magida rekonstruksiya qilingan bo'lsa, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Samarqand filialining yangi binosi bank ko'magida bunyod etilib, zamonaviy tibbiy uskunalar bilan ta'minlangan.

Jahon banking Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha yangi tayinlangan vitse-prezidenti Antonella Bassani bilan



## JAHON BANKI VITSE- PREZIDENTI SAMARQANDDA

birgalikda O'zbekistonga kelganidan xursandman, - deydi Jahon banking Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha direktori Tatyana Proskuryakova. - Biz O'zbekiston bilan 30 yildan beri hamkorlik qilib kelmoqdamiz. Bugungi kunda ham umumiy qiymati 6 milliard dollarga yaqin yigirmadan ortiq loyihalar ustida ishlar olib borilmoqda. Jumladan, sog'liqni saqlash va oqova suv tizimlari bo'yicha Samarqandda amalga

oshirilayotgan loyihalarimizni ko'zdan kechirdik. Bevosita ushbu obyektlarda bo'lib, hamkorligimiz ijobiy samara berayotganligiga guvoh bo'ldik.

Mehmonlar kunning ikkinchi yarmida Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylari bilan tanishdi. Xalqimizning boy madaniy merosi mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi.

A. ISROILOV.

## KOMISSIYA A'ZOLARI O'QITILDI

**Markaziy saylov komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan "Muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi komissiyalar a'zolarining malakasini oshirishni tashkil etish Konsepsiyasi"ga muvofiq uchastka saylov komissiyalari a'zolari uchun o'quv-amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.**

Past Darg'om tumanida tuzilgan 90 ta uchastka saylov komissiyasi a'zolari uchun ham shunday o'quvlar tashkil etildi.

Respublikamizning barcha hududlarida joriy yilning 29-30-may kunlari hududiy trenerlar uchun seminar-treninglar tashkil etilgan edi, - deydi 7-Samarqand okrug saylov komissiyasi a'zosi Latif Rustamov. - Endilikda mazkur

trenerlar tomonidan uchastka saylov komissiyasi raisi, o'rinbosari va kotiblari tayyorlanayapti. O'quv kurslarini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish maqsadida yuqori malakali ekspertlar tomonidan o'quv rejalarga muvofiq ma'ruza matni, topshiriq savollari, test, taqdimot, infografika, video-darslar ko'rinishidagi o'quv-uslubiy materiallar tayyorlangan bo'lib, mashg'ulotlar mazmuni ushbu

o'quv-uslubiy materiallarga asoslangan.

Mashg'ulotlar davomida malakali ekspertlar tomonidan tayyorlangan "Saylov qonunchiligi va amaliyoti bo'yicha o'quv-amaliy qo'llanma" asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga oid qonun hujjatlari, saylov komissiyalari va ularning vakolatlari, saylovchilar ro'yxatlari bilan ishlash kabi masalalar tushuntirildi.



## YOSHLAR FESTIVALIDA YANGI LOYIHALAR BOR

**Viloyat Matbuot uyida Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i Husan To'xtayev ishtirokida 30-iyun - Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkaziladigan festivallardan oldidan tashkil etilgan matbuot anjumanida shu haqda xabar qilindi.**



Iyun oyda yurtimizda yoshlar oyligi doirasida "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida festivallarni o'tkazilishi an'anaga aylandi. Bundan ko'zlangan maqsad o'g'il-qizlarimizning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, uyushmagan yoshlarni birlashtirish, iste'dod egalarini izlab topish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, Vatanga bo'lgan muhabbatini, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissinini oshirishdan iborat.

Festival harbiy vatanparvarlik va madaniy-ma'rifiy tadbirlar, intellektual o'yinlar hamda sport musobaqalarini o'z ichiga oladi.

Bu yilgi festivalning avvalgilaridan farqli jihatlari bor, - deydi Husan To'xtayev. - O'ylik doirasidagi

tadbirlar dasturiga yangi loyihalar - "Chet tillar marafoni", "Huquqingizni bilasizmi?", "Konstitutsiya bilimdoni" kabi tanlov hamda mahorat darslari kiritilgan. Shuningdek, Samarqand "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi bir nechta tanlov va musobaqalarning respublika bosqichiga mezbonlik qiladi.

Viloyatimizning Samarqand shahri, Past Darg'om, Urgut va Toyloq tumanlarida o'tkaziladigan yoshlar festivalida respublika targ'ibot guruhi a'zolari ishtirok etishi ko'zda tutilgan.

Shu kunlarda tuman va shaharlarda oylik doirasida o'tkazilishi rejalashtirilgan tadbirlar boshlanib ketdi.

\*\*\*

Bu yil viloyatda "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori

ostidagi festivalni Kattaqo'rg'on tumani yoshlari boshlab berdi.

Erta tongda "Sog'lom hayot uchun 5 ming qadam" yurish marafonida minglab yoshlar qatorida nuroniyalar, xususan, 90 yoshni qarshilagan Murod bobo Sayfiyev ham qatnashdi.

Tuman markaziy istirohat bog'ida tashkil etilgan hunarmandlik mahsulotlari ko'rgazmasida 5-maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi Muxtasar Hayitova qo'l mehnati bilan yaratgan tarixiy obidalar maketlari ko'pchilikning e'tiborini tortdi.

\*\*\*

Festival Paxtachilari tumanida davom etdi. An'anaga muvofiq sport musobaqalari, turli xil tanlovlar, intellektual o'yinlar, madaniy tadbirlar tashkil etildi.

Tadbirlar doirasida viloyat targ'ibot guruhi a'zolari safida bo'lgan san'atkorlar katta-kichik sahnalarda o'z chiqishlari bilan paxtachiliklarga bayramona kayfiyat ulashdi.

Tumandagi 34-bolalar musiqa va san'at maktabining faollar zalida paxtachilik bolajonlar uchun viloyat qo'g'irchoq teatri ijodkorlari tomonidan "Oltin tarvuz" ertagi asosida sahnalashtirilgan spektakl namoyish etildi.

Har ikki tumanda ham festival yakunida faol yoshlar va yigit-qizlarga yaqindan ko'mak berayotgan faollarni taqdirlash marosimi hamda gala-konsert tashkil etildi.

To'liq SIDDIQOV,  
Jasurbek SHUKUROV (surat).



O'zbekiston - Rossiya sog'liqni saqlash forumi:

## MANFAATLI KELISHUVLARGA ERISHILDI

**Samarqand shahrida O'zbekiston - Rossiya xalqaro sog'liqni saqlash forumi bo'lib o'tdi.**

Unda O'zbekiston Sog'liqni saqlash vaziri Amrillo Inoyatov, Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vaziri Mixail Murashko, shuningdek, diplomatik korpus vakillari, har

ikki mamlakatning yetakchi tibbiyot oliy o'quv yurtlari rektor va professorlari, nufuzli tibbiyot klinikalari, ilmiy tadqiqot institutlari, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, yirik farmatsevtika va tibbiyot kompaniyalari rahbarlaridan iborat 500 nafar soha mutaxassisi ishtirok etdi.

(Davomi 3-sahifada) >>>



**5-8-iyun** kunlari viloyatimiz hududiga **Erdan issiq havo oqimi kirib keladi.** Natijada havo harorati **38-40 darajagacha ko'tariladi.**

**7-8-iyunda** ba'zi joylarda **shamol tezligi 15-20 metr** soniyaga kuchayishi, **chang-to'zon** ko'tarilishi kuzatiladi.

**Samarqand gidrometeorologiya boshqarmasi.**

Xabaringiz bormi?

Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali daromadi yuqori bo'lmagan hamda uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan oilalar, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni himoya qilish va ularni subsidiya asosida o'z uy-joylari bo'lishiga ko'maklashish uchun davlat budgetidan mablag' ajratish tizimi joriy etilgan. Shuningdek, mamlakatimiz ijtimoiy hayotida faol ishtirok etayotgan yoshlar va shu toifadagi boshqa aholi qatlamlariga ko'maklashish, uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda manzillilik va shaffoflikni ta'minlash ham alohida e'tiborda.

# SUBSIDIYA AJRATISH SODDALASHTIRILDI

Kimlarga yengilliklar beriladi?

Dastlab Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-martdagi "Uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun fuqarolarga subsidiya to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori bilan yuqoridagi toifalarga kiruvchi aholiga ipoteka kreditlari ajratilganda, subsidiya to'lash tartibi joriy etilgandi. Unga ko'ra, subsidiya hududlarda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 2,7 barobaridan kam, 7 barobaridan ko'p bo'lmisligi belgilangan. Ya'ni, subsidiya oluvchi oyiga kamida 2,6 million so'm, yiliga 31 million 752 ming so'm ish haqiga ega bo'lishi lozim. Ko'p miqdori oyiga 6 million 760 ming so'm, yiliga 82 million 320 ming so'mdan oshmasligi kerak.



Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi "Aholiga ipoteka krediti va uy-joy sotib olish uchun subsidiya ajratish jarayonlarini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan fuqarolarga ipoteka va subsidiya ajratish jarayonidagi byurokratiyani keskin qisqartirish hamda jarayonlarni raqamlashtirish belgilandi. Oddiy qilib aytganda, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun ko'maklashish jarayoni bir muncha soddalashtirildi. Ya'ni, Yoshlar ishlari agentligi, Davlat kadastrlari palatasi, bandlik, soliq va boshqa tashkilotlar tomonidan arizalarni ko'rib chiqish tartibi raqamli tizimga o'tkazildi. Ijtimoiy reestrda turuvchi yolg'iz boquvchisi bo'lganlar, yolg'iz onalar, birinchi guruh nogironligi bo'lgan fuqarolar, o'lis va chekka hududlarda joylashgan budget tashkilotlarining oliy ma'lumotli yoki tibbiyot xodimlariga, 30 yoshgacha bo'lgan yosh oilalarga ham 10 ball beriladi. Shu kabi mezonlar asosida 30 ball va undan yuqori ball to'plash subsidiya ajratishga asos bo'ladi.

Raqamlarga qaraydigan bo'lsak, keyingi olti yilda mamlakatimiz aholisi 5,5 million nafarga o'sgan va yaqin yillarda 40 millionga yetishi mumkin. Aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturlariga asosan, respublika bo'yicha 2017-yildan buyon 326 mingta yangi uy-joy foydalanishga topshirilgan. Bu orqali uy-joy bilan ta'minlanganlar darajasi aholi jon boshiga 18 foizga oshgan. Keyingi uch yilda 210 ming oilaga 33 trillion so'mlik ipoteka krediti ajratilib, 73 ming ehtiyojmand oilaga boshlang'ich badal va foiz to'lovlari uchun 1,3 trillion so'm subsidiya ajratilgan.

Sohaga bozor tamoyillari joriy qilinib, yuzlab xususiy buyurtmachi kompaniyalar shakllandi. Seysmik xavfsiz va energiya tejamkor yig'ma temir-betonli ko'p qavatli uylarni qurish bo'yicha 11 ta yirik klaster paydo bo'ldi.

2023-yil 13-aprelda Prezidentimizning "2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmonga asosan, jismoniy shaxslarga ipoteka krediti berishning zamonaviy va barqaror tizimini shakllantirish, uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan oilalarni davlat tomonidan manzilli qo'llab-quvvatlash belgilandi. Shuningdek, mahalliy va

xalqaro kapital bozorlarida moliyaviy resurslarni jalb qilish va keyinchalik ularni ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishga yo'naltirish vazifasi qo'yildi.

Endilikda, ya'ni joriy yil 1-maydan rasmiy daromadi yetarli bo'lmagan aholiga ham ipoteka krediti olish imkoni yaratildi. Bunda ularning to'lov qobiliyatini aniqlashda bank kartasidagi aylanma, ijara, kommunal va boshqa xarajatlarga to'langan pullari ham hisobga olinadi.

Dastlabki badalni ko'proq to'lagan fuqarolar bankdan arzonroq kredit olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Subsidiyaga ajratilgan mablag'larni tezroq ishlatish uchun subsidiya xabarnomasining amal qilish muddati 12 oydan 4 oyga tushiriladi. Ya'ni, bu muddat qisqartirilishi orqali subsidiyadan ko'proq aholi foydalanishi uchun imkoniyat yaratildi.

Shu bilan birga, 4 oyda sertifikatidan foydalanmagan fuqarolarga subsidiya olish uchun yana qayta murojaat qilish huquqi beriladi.

Ushbu chora-tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida 2023-yilda:

- tijorat banklariga 31 ming oilaga uy-joy ipotekasi uchun 9 trillion so'mlik resurs yo'naltirish;
- dastlabki badal va foizlarni qoplashga 1,6 trillion so'm subsidiya ajratish;
- ipoteka kreditiga resurs berish va qurilish korxonalarining aylanma mablag'larini ko'paytirish uchun 100 million dollar va 1 trillion so'm qo'shimcha mablag' ajratish;
- yana 20 ming oilaga banklar hisobidan 5,7 trillion so'm ipoteka krediti ajratilishini ta'minlash;
- 10 ming aholiga o'zining hovlisini kengaytirish yoki qo'shimcha qurilish qilish uchun 1,5 trillion so'm kredit ajratish;

Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi orqali aholiga 5,5 mingta xonadon sotib olishlari uchun qo'shimcha 1,7 trillion so'm kredit resurslari yo'naltirish belgilandi.

Farmonga asosan, fuqarolarga subsidiya ajratish o'tgan yilgi tartibga nisbatan ancha soddalashtirilgan, - deydi Ishtixon tumani Davlat xizmatlari markazi direktori Jamshid Umirov. - Talab qilinadigan hujjatlar soni ham qisqartirildi. Misol uchun, avval arizachidan pastport nusxasi, hisoblangan ish haqi, kafilingin ma'lumotlari va boshqa hujjatlar talab qilingan. Bu yilgi tartibda arizatchi oila a'zolarining pasport nusxasi va voyaga yetmagan farzandlarining tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi nusxasi yetarli bo'ladi.

Markazimizga 2022-yilda subsidiya olish uchun 163 ta



ariza tushgan bo'lsa, uning 143 tasi mezonlarga mos kelganligi bois rad etilgan, 2 ta ariza jarayonda qolgan, 18 tasi qanoatlantirilgan. Joriy yil 1-maydan 18-maygacha 457 ta murojaatning 410 tasi jarayonda va 47 tasi rad etildi.

Ma'lumot uchun, Ishtixon tumani Davlat xizmatlari markazi tomonidan 2021-yilda 24906 ta davlat xizmati ko'rsatilgan bo'lsa, 2022-yilda 49284 ta, joriy yilning birinchi choragida esa 17135 ta davlat xizmati ko'rsatilgan.

**O'ktam XUDOYBERDIYEV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).**

# Quyoshdan foyda olyapsizmi?



Viloyatimizda joriy yil 1074 ta ijtimoiy soha obyekti va davlat idorasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari o'rnatilish rejalashtirilgan bo'lib, hozirgacha 795 tashkilotda umumiy quvvati 9,83 MWt bo'lgan quyosh panellari va 75,70 ming litr sig'imdagi gelio-kollektorlar o'rnatildi. Shu kungacha barcha tumanlarda davlat idoralarida belgilangan rejadagi quyosh panellari o'rnatib bo'lingan bo'lsa, Samarqand shahrida bu boradagi reja 68 foizga bajarilgan. Quyosh energiyasi yordamida suv isitish qurilmalari o'rnatish ishlari Payariq, Samarqand, Urgut, Paxtachi tumanlarida sust ketmoqda.

Jumladan, 3751 ta hovlida kichik quvvatdagi energiya manbalari o'rnatish ko'zda tutilgan bo'lsa-da, vazifalar o'z vaqtida bajarilmayapti. Hozirgacha, 17,53 megavatt o'rni 5,56 megavatt quvvatga ega bo'lgan qurilmalar o'rnatilib, bu boradagi ishlar bor-yo'g'i 32 foizga bajarilgan. Tuman hokimliklari va mutasaddi tashkilotlar tomonidan aholi xonadonlarida quyosh panellari o'rnatish ishlari Payariq, Paxtachi, Past Darg'om, Urgut, Qo'shrabot tumanlarida yaxshi tashkil etilmagan.

Xonadonlarda quyosh energiyasi yordamida suv isitish uskunalaridan foydalansa bo'ladi. Jomboy, Narpay, Oqdaryo tumanlarida kichik quvvatli geliokollektorlarni o'rnatish ishlari yaxshi tashkil etilgan.

Joriy yilda foydalanishga topshiriladigan ko'p qavatli uylarni qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan ta'minlash ham ko'zda tutilgan. Viloyatdagi 6 ta shahar va tumanda qurilgan ko'p qavatli uylarda quyosh panellari o'rnatiladi. Biroq quruvchi tashkilotlar tomonidan bu ishlar yetarli darajada amalga oshirilmayapti. Hozirgacha Samarqand shahrida foydalanishga topshirilgan 5 ta ko'p qavatli uyning 1 tasiga, Payariqda 1 ta uyga quyosh panellari o'rnatilgan bo'lsa, Jomboy, Narpay, Oqdaryo, Urgut tumanlarida bu ishga hali qo'l urilgan emas.

Viloyatdagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan bugungi kunga qadar 50500 kWt o'rni, 2820 kWt quvvatga ega bo'lgan quyosh panellari o'rnatilgan, xolos. Dehqon bozorlari, avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari, yirik savdo do'konlari va boshqa korxonalar tomonidan hanuzgacha bu kabi qurilmalar qo'yilmagan. Jumladan, eng ko'p tadbirkorlar faoliyat yuritayotgan Samarqand shahrida 128 ta o'rni bor-yo'g'i 17 ta xususiy korxonaga qarashli binolarda quyosh panellari o'rnatilgan.

Kattaqo'rg'on tumani Andoqsoy mahallasida yashovchi xususiy tadbirkor Sh.Ernazarov 0,7 kWt, 2-sektorga qarashli Do'stlik mahallasidan S.Hakimov esa 0,6 kWt quvvatga ega quyosh panellaridan foydalanib kelmoqda.

Korxonamizga 0,7 kWt quvvatli quyosh panellarini o'rnatib, bir oyda qariyb 300 ming so'mlik elektr energiyasini tejayapmiz, - deydi xususiy tadbirkor Sh.Ernazarov. - Endi elektr yo'qligida mahsulotlarimiz sifati buzilib qolmaydi. O'rtiqcha ishlab chiqarilgan elektr energiyani esa davlatga sotamiz.

Prezident qaroriga muvofiq, joriy yildan boshlab umumiy quvvati 100 kWt.gacha

bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslar ushbu qurilmalar bo'yicha mol-mulk solig'i, yer solig'i hamda yuridik shaxslar sotgan elektr energiyasi uchun olgan foydadan hisoblanadigan soliqni to'lashdan uch yil muddatga, quyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo'lmagan quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimi bilan o'rnatgan bo'lsa, o'n yil muddatga ozod etilishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, "Quyoshli xonadon" dasturiga ulangan aholi va tadbirkorlik subyektlari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishlab chiqarilgan elektr energiyasini davlat organiga va hududiy elektr tarmoqlariga o'rnatilgan tariflarda, o'zaro kelishilgan narxlarda uzoq muddatli shartnomalar asosida sotishlari mumkin.

Quyosh panellari o'rnatgan tadbirkorlar yagona energetika tizimiga uzatilgan va iste'mol qilingan elektr hajmining hisobi billing tizimida yuritilib, oy yakuni bilan o'zaro hisob-kitob qilinadi. Aholi o'rnatgan quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va o'z iste'molidan ortirib uzatilgan energiyaning har bir kilovatt-soati uchun budgetdan 1000 so'mdan subsidiya ajratiladi. Ushbu mablag' soliq organlari tomonidan har oyda "Soliq.uz" mobil ilovasi orqali fuqarolarning bank kartalariga o'tkazib berilishi kuzda tutilgan.

Hozirda viloyatimizda aholi xonadonlariga kichik quvvatli, ya'ni, umumiy quvvati 50 kWt.gacha bo'lgan quyosh panellarini o'rnatishni rag'batlantirish bo'yicha "Quyoshli xonadon" dasturi amalga oshirilmoqda, - deydi Samarqand elektr tarmoqlari korxonasi ASKUE bo'limi boshlig'i Temur Oripov. - Bu dastur hali yangi bo'lganligi uchun ham ko'pchilik yetarlicha tushunchaga ega emas, mazkur dasturga a'zo bo'lishga shoshilmayapti. Hozirgacha, viloyatdagi 16 ta yuridik shaxs dasturda ro'yxatga olingan. Aholi tomonidan ham 4 nafar fuqaro elektron tarzda ariza bergan, xolos. Ammo ularning xonadonlariga borib o'rganganimizda hali quyosh panellari o'rnatilmaganligining guvohi bo'ldik.

Yana bir gap. Siz xonadoningizga quyosh panellari sotib olib o'rnatdingizmi, albatta, "Quyoshli xonadon" dasturida elektron tarzda ro'yxatdan o'ting. Bu siz sarflagan elektr energiyasi hisobini yuritish, xarajatni qoplashdan tashqari qo'shimcha daromad ham keltirishini unutmang!

**Dilmurod TO'XTAYEV.**

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda yiliga o'rtacha 20 million tonna meva-sabzavot yetishtiriladi. Hisolning kam qismi qayta ishlanadi va eksport qilinadi. Yetishtirilgan mahsulotlarni xalqaro standartlarga mos laboratoriya tekshiruvidan o'tkazishda ham muammolar kuzatiladi. Bunga avvalo, infratuzilmaning yetarli emasligi tufayli yig'ishtirish va saqlashda ko'p yo'qotishlar bo'ladi. Sohadagi imkoniyatlardan to'g'ri foydalanib, mahsulotlarni chuqur qayta ishlashni ko'paytirish, oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish va eksport hajmini oshirish mumkin. Buning uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ish, tashish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va eksport qilish jarayonlarini qamrab oladigan zamonaviy agrologistika markazlarini ko'paytirish lozim.

# Agrologistika agrar soha istiqbolini belgilaydi

Raqamlarga qaraydigan bo'lsak, hozirda viloyatimizda yiliga 2,5 million tonnadan ortiq meva-sabzavot yetishtiriladi. Lekin ularni sanoat usulida qayta ishlash darajasi 34 foiz bo'lib, shundan 12 foizi eksport qilinmoqda.

Prezidentimizning 2019-yil 29-iyuldagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, bugungi kunda viloyatda jami 8 ta agrologistika markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu zamonaviy agrologistika markazlarining yillik ishlab chiqarish va eksport quvvati 210 ming tonnani tashkil etadi.

Agrologistika markazlari asosan Samarqand, Bulung'ur, Jomboy tumanlari hamda Samarqand shahrida tashkil etilgan, - deydi viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi oziq-ovqat sanoati, agrologistika va eksportni rivojlantirish shu'basi boshlig'i Asomiddin O'rinov. - 2022-yilda agrologistika markazlari tomonidan qiymati 332 milliard so'mlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari qayta ishlanib, umumiy qiymati 14 million dollarlik meva-sabzavot eksporti amalga oshirildi.

2023-2030-yillarda xalqaro moliya institutlarining 252 million dollar mablag'i va tijorat banklarining imtiyozli kreditlarini jalb qilish hisobiga jami qiymati 952 milliard so'mlik 9 ta agrologistika markazi tashkil etiladi. Yangi tashkil etiladigan agrologistika markazlari hisobiga ularning soni 8 tadan 17 taga, quvvati 210 ming tonnadan 776 ming tonnaga (o'sish 3,6 baravar) yetkaziladi va 1,5

ming nafardan ortiq ish o'rni yaratiladi. Natijada, agrologistika markazlarining eksport salohiyati 14 million dollardan 152 million dollarga (o'sish 11 baravar) yetkaziladi.

Tashkil etiladigan markazlar "Bektem" (Turkiya), "Geerlofs Refrigeration B.V" va "Celtic cooling" (Gollandiya), "Octofrost" (Shvetsiya) kabi dunyoning yetakchi kompaniyalarining eng yuqori texnologik uskunalar bilan jihozlanadi. Korxonalarda zamonaviy sovutkichli kameralar, saralash, qadoqlash, shok usulida muzlatish, sublimatsiya texnologiyasi asosida quritish yo'lga qo'yiladi. Markazlar tomonidan "ISO 9001", "22000", "Global G.A.P", "HACCP", "HALAL" kabi sifatni boshqarish menejmenti tizimlari joriy qilinadi.

Xususan, bugungi kunda Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi "Meva-sabzavotchilik tarmog'ida qo'shilgan qiymat zanjiri infratuzilmasini rivojlantirish" loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyiha doirasida Jomboy tumani meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, saralash, qadoqlash, saqlash, mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish hamda ulgurji bozorni o'z ichiga olgan qiymati 45 million dollar bo'lgan yirik agrologistika kompleksi tashkil etiladi.

Loyihaning umumiy quvvati 492 ming tonna bo'lib, 230 ming tonna mahsulot eksport qilinadi. Agrokompleksda 1,3 mingdan (800 ta doimiy, 500 ta mavsumiy) ortiq yangi ishchi o'rni yaratilishi rejalashtirilgan.

Viloyat investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, viloyatimizda 2022-yilda hududiy



investitsiya dasturi va dasturdan tashqari qo'shimcha ishga tushirilgan logistika yo'nalishida qiymati 51,3 milliard so'mlik 3 ta investitsiya loyihasi ishga tushirilgan va 36 ta yangi ish o'rni yaratilgan.

2023-yilda esa hududiy investitsiya dasturi doirasida ishga tushirilishi rejalashtirilgan logistika yo'nalishida qiymati 194,4 milliard so'mlik 8 ta investitsiya loyihasi ishga tushiriladi. Natijada 200 dan ortiq ish o'rni yaratiladi.

**O. QO'ZIBOYEV.**

XX asrning eng qirg'inbarot, millionlab insonlarning yostig'ini quritgan Ikkinchi jahon urushi jangohlarida yuz minglab insonlar buyuk jasorat namunalari ko'rsatgan bo'lsa, front ortida minglab o'zbekistonliklar "Hamma narsa front uchun, g'ala-ba uchun" shiori ostida matonat bilan mehnat qildilar. Undan tashqari, fashistlar ishg'ol qilgan hududlardan minglab oilalar mamlakatimizga ko'chirib keltirildi, ota-onasidan judo bo'lgan bolalar o'zbek oilalarida panoh topdi.

## OLIYJANOB INSONGINA EZGU ISHLARGA QODIR

Bu borada albatta, turli millatga mansub 14 nafar bolani o'z tarbiyasiga olgan toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudovning oilasi tilga olinadi. Biz, kattaqo'rg'onliklilar esa frontda og'ir jarohat olib, yurtiga qaytgach, 13 nafar yetim bolani asrab olgan hamshahrimiz Hamid Samatov bilan faxrlanamiz.

Hamid Samatovning bu insonparvarligi haqida ko'p va xo'p yozilgan. Uning oilasi haqida sobiq ittifoq miqyosidagi gazeta va jurnallarda 120 dan ortiq maqola va xabarlar tayyorlangan bo'lsa, yurtimiz, Rossiya, Ukraina va Germaniya televideniyalari tomonidan oltita hujjatli film suratga olingan. Taniqli jurnalist va yozuvchi Samad Qodirov tomonidan "Inson nomi qadri" nomli qissa bitilgan.

1943-yilning oktabr oyida Dnepr daryosi kechuvida ishtirok etib, og'ir jarohat olib, daryo qirg'og'ida qor ostida qolib ketgan H.Samatovni ukrainalik ayollar qutqarib qolgan haqida 1975-yil "Komsomolskaya pravda" gazetasida maqola e'lon qilinadi. Ushbu maqolani hamshahrimizni qutqargan ayollardan biri Nadejda Nikolayeva ham o'qiydi va Samatovga shu mazmundagi xatni yozadi:

"Hurmatli Hamid, gazetada sizning suratigizni ko'rgach, hayratda qoldim. Maqolani hayajon bilan o'qidim. O'sha 1943-yildagi qo'rqinchilik kuz kunlari ko'z oldimda gavdalandi. Front



chizig'i onam bilan yashab turgan Zaporozhe yaqinidagi Yangi Aleksandrovk qishlog'idan o'tgan edi. Yerto'lamizda bir nechta yarador askarlar yotardi. Biroq xotiramda bittasi, ya'ni sharqona ko'rinishga ega bo'lgan askar qiyofasi saqlanib qolgan. U hech gapirmasdi, biz "u rus tilini bilmasligi sabab gapirmayotgandir", deb o'ylardik.



Lekin u jilmayganida yuzidan nur taralardi.

Hamid, u siz edingiz. Balki adashayotgandirman...

Siz o'sha ukrainalik ayollarga minnatdorchilik bildirishingiz shart emas. Aslida sizga bizning yerimizni ozod qilishda shunchalik zahmat chekkaningiz uchun boshimiz yerga tekkuncha ta'zim qilishimiz kerak. Sizga urushdan keyingi davrda ko'rsatgan fuqarolik jasoratining uchun ham rahmat!

Sakson yoshli onam ham gazetadagi suratigizni ko'rib, sizni tanidi. Shunday beg'ubor tabasumga ega bo'lgan oliyanob insongina birovlarning 13 nafar bolasini asrab olishdek ezgu ishga qodir".

Shu kabi yozishmalaridan keyin Nadejda Nikolayeva turmush o'rtog'i bilan bir necha bor Samatovlar oilasining mehmoni bo'lishgan.

\*\*\*

Ayni kunlarda Kattaqo'rg'on shahrining Amir Temur mavzesida shahar hokimligi tashabbusi bilan hamda Hamid otaning jiyani, tadbirkor Ibrohim Samatov homiyligida Ikkinchi jahon urushi davrida ota-onasidan ayrilib, yetim qolgan, o'n uch millat bolalarini asrab olgan, ularni voyaga yetkazgan Samatovlar oilasi xotirasi uchun yodgorlik majmui barpo etish ishlari boshlab yuborilgan.

Tohir HAMIDOV.

## OROMGOHLAR 10-IYUNDAN FAOLIYAT BOSHLAYDI

Viloyatda oromgohlarning vaqtida ochilmagani hali tayyorgarlik ishlarining tugamagani bilan bog'liq. Bu yil oromgohlarga 10 mingga yaqin bola qamrab olinishi rejalashtirilgan. Shahardan tashqaridagi 16 ta oromgoh bolalarning yoz mavsumini ko'ngildagidek o'tkazishga xizmat qiladi. Shulardan 12 tasi Prezidentimizning 2022-yil 19-noyabrdagi "Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog'lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi tasarrufiga o'tkazildi. Bu haqda 2023-yilgi yozgi bolalarni dam oldirish va sog'lomlashtirish mavsumini uyushqoqlik bilan tashkil etish maqsadida o'tkazilgan hududiy seminarda ma'lum qilindi.



- Bu yil oromgohlarning 90 foizida direktor almashdi, - dedi O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi raisi Suhrob Rafiqov. - Yangi direktorlar attestatsiyadan o'tkazilib, ishga olindi. Oromgohlarda bu yil autsorsing xizmati yo'lga qo'yiladi. Viloyatda uch nafar tadbirkor tenderda g'olib bo'ldi, ular taomnoma asosida bolalarga ovqat pishirib beradi. Shuningdek, endi oromgohlar doimiy faoliyat olib boradi, avvalgidek mavsumiy ishlab, keyin qarovsiz qoldirilmaydi. Bolalar oromgohlari birin-кетин kapital ta'mirlanadi va qish mavsumida ham ishlashga moslashtiriladi. Bu yil har bir bolalar oromgohiga sig'imiga qarab 500-600 million so'mlik krovat, choyshab, idish-ovozlar olib kelindi.

Seminarda tegishli muassasa mas'ullari tomonidan bolalar oromgohlarida yaratilayotgan shart-sharoit, shuningdek, kamchiliklar tilga olindi.

Viloyatdagi 16 ta oromgoh va 66 ta sog'lomlashtirish maydonchalarida 22650 nafar bola qamrab olinadigan bo'lsa, bu 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarning atigi 3 foizini tashkil qiladi, - dedi viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi shu'ba rahbari Akmal Olimov. - Oromgohlar soni ko'paytirilsa, kelajakda bu ko'rsatkich oshishiga umid qilamiz. Bu yil oromgohlarda tarbiyachi, yetakchi, kutubxonachi vazifalarida 342 nafar pedagog xizmat qiladi.

Oromgohlarga tibbiyot, sanitariya-epidemiologik osovishlilik va jamoat salomatligi xizmatlari ham biriktiriladi.

Seminarda oromgohlarga biriktirilgan har bir soha xodimi mas'uliyatini his etishi, bolalarning oromgohlarga xavfsiz kelib ketishi, yo'llanma olishni soddalashtirish kabi masalalar ham muhokama etildi.

Dildora BOZOROVA.

O'zbekiston - Rossiya sog'liqni saqlash forumi:

## Manfaatli kelishuvlarga erishildi



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Anjumanda tibbiyot sohasini raqamlashtirish bo'yicha qo'shma loyihalar, kadrlarni tayyorlash, qayta o'qitish va ularning malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirish, birgalikda ilmiy-amaliy anjumanlar, mahorat darslarini o'tkazish, ilmiy tadqiqotlarni olib borish, neyroxirurgiya, pediatriya, xirurgiya, kardiologiya, onkologiya yo'nalishtirish o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, qo'shma ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, O'zbekistonda Rossiya tibbiy ta'lim muassasalari filiallarini tashkil etish, sog'liqni saqlash sohasiga investitsiyalarni jalb qilish, sheriklikning yangi shakllarini joriy etish bo'yicha 172 ta memorandum va qator kelishuvlar imzolandi. Tomonlar o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish va rivojlantirish bo'yicha rezolyutsiya qabul qildi.

O'zbekistonda tibbiy ta'limni rivojlantirish, mamlakatimiz tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish hamda ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qo'shgan hisssasi uchun Rossiyaning boshqa qator tibbiyot oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot institutlari va ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari rahbarlariga "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni, tashakkurnomalar hamda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining "Faxriy professor"i unvonlari topshirildi.

\*\*\*

Forum doirasida Rossiya sog'liqni saqlash vaziri Mixail Murashko Samarqand bolalar xirurgiya markazi faoliyati bilan tanishdi.

O'zbekistonda tibbiyotga, ayniqsa, bolalar salomatligini saqlashga bo'lgan e'tiborga havasimiz ortdi, - deydi M.Murashko. - Buni mazkur bolalar xirurgiya markazi, viloyat ko'p tarmoqli bolalar shifoxonasida yaratilgan sharoitlar, zamonaviy tibbiy uskunalar bilan ta'minlanganlik, shifokorlardagi ishtiyoq orqali yaqqol ko'rish mumkin. Rossiyalik shifokorlar samarqandlik tibbiyot xodimlari bilan hamkorlikda ishlash, o'zaro tajriba almashishga hamisha shay.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi sog'liqni saqlash vazirligi bosh bolalar xirurgi, Veltishev nomidagi pediatriya va bolalar xirurgiyasi klinik ilmiy tekshirish instituti direktori, tibbiyot fanlari doktori, professor Dmitriy Morozov markazda davolanayotgan bemorlar bilan suhbatlashib, ularni tibbiy ko'rikdan o'tkazdi. Bolalar xirurgiyasi bo'yicha kelajakda o'zaro hamkorlik qilish haqida takliflarini bildirdi. Bu borada ikki tomonlama kelishuv amalga oshirildi.

Ikki kunlik forum doirasida sog'liqni saqlash sohasida ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan qator hujjatlar imzolandi.

O'z muxbirimiz.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## "SAMARQANDDONMAHSULOTLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"Samarqanddonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2023-yil 26-iyun kuni (dushanba kuni) soat 10:00 da Samarqand shahri Ziyokorlar ko'chasi, 4-uy manzilida joylashgan jamiyat majlislar zalida o'tkaziladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBIDA:

1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash;
  2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi soni va shaxsiy tarkibini saylash;
  3. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish.
- Jamiyat navbatdan tashqari umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxatini tuzish hamda yig'ilish o'tkazilishi haqida xabarnoma olish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2023-yil 10-iyun kuni va umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2023-yil 20-iyun kuni belgilandi.

Aksiyadorlar aksiyadorlarning navbatdan tashqari yig'ilishida ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha ma'lumot va materiallar bilan "Samarqanddonmahsulotlari" AJ da ushbu xabar e'lon qilingan kundan boshlab, yig'ilish o'tkaziladigan kunga qadar soat 8:00 dan 10:00 gacha tanishishlari mumkin.

Murojaat uchun telefonlar: +99866-239-55-04.

Jamiyatning rasmiy veb-sayti: [www.samdon.uz](http://www.samdon.uz)

Elektron pochta manzili: [samarqanddon@gmail.com](mailto:samarqanddon@gmail.com)

JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.

### DA'VOLAR BO'LSA...

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Tuychiyev Saydulaga (2021-yil 1-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Tuxtayev Sobirdjonga (2021-yil 6-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.**

\*\*\*

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Ashurova Setora Suyunboevnaga (2022-yil 10-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros

ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xalilov Maxmud Abduxamidovichga (2020-yil 10-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Vafayev Mardonga (2023-yil 2-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva

Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Cherevko Grigoriy Ivanovichga (2022-yil 19-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.**

\*\*\*

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahatov O'lmas To'rayevich notarial idorasida marhum Mallyayev Abdumalik Ablakulovichga (2022-yil 19-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahatov O'lmas To'rayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi, 26-uy.**

\*\*\*

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Tagiyev Latifga (2013-yil 16-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani O'rtashiq mahallasi.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Zaxarova Valentina Vasilevna (2020-yil 19-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurrahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Serbina Galina Valeryevnaga (2019-yil 11-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.**

\*\*\*

**BEKOR QILINADI**  
Urgut tumanidagi "UMID UMAR SAMANDAR" xususiy korxonasining (STIR: 305879334) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Tarix sahifalarida

# SHAYBONIY MALIKANING MADRASASI QAYERDA?

Shayboniyxonning XVI asr boshidagi hukmronlik yillari Samarqand shahri bilan bog'liq bo'lib, bu davrda bir qator bunyodkorlik ishlari olib borilgan, turli inshootlarning qurilishiga asos solingan. Shulardan biri qurilishi 1505-yilda boshlangan muhtasham madrasa binosi edi. Xalq orasida bu madrasa "Madrasai Oliyai xoniya" - xonga tegishli katta madrasa deb yuritilgan. Biroq Shayboniyxon madrasa qurilishi tugamay, 1510-yil 10-dekabrda shoh Ismoil Safaviy bilan Marv yonidagi jangda halok bo'ladi.

Muhammad Shayboniyxonning o'limi bilan bog'liq voqea uning xotinlaridan biri Oysha Sulton xonimning ishtiroki xususida manbalarda qisman ma'lumotlar keltirilgan. Mo'g'ul malikalaridan bo'lgan bu oliy nasab ayol ko'proq Mo'g'ul xonim nomi bilan ma'lum bo'lgan. Muhammad Shayboniyxonning o'limidan sal oldin davlat ayonlarining mashvaratida shoh Ismoil Safaviyning ayyorona chekingan qizilboshlar qo'shini bilan jang qilish uchun Marvga yurish qilish qanchalik ma'qul degan savol muhokama qilingan. O'zbek amirlari Movarounnahrda qo'shimcha harbiy kuchlar yetib kelishini ikki-uch kun kutish kerak, degan fikr bildiradilar. Biroq "Tarixi Rashidiy" asarining muallifi Mirza Muhammad Haydarning bergan ma'lumotiga ko'ra, Mo'g'ul xonim bu masalalarga aralashib, modomiki Shayboniyxon Eron shohiga, uni jangga chorlab, ikki marta maktub yo'llagan ekan, Ismoil Safaviy uzoq yo'l bosib, yaqin kelganida, unga qarshi chiqmaslik vijdonisizlik bo'ladi, shunday ekan, yurakka ko'rquvni yaqin keltirmay, jang maydoniga yo'l olish kerak, deb da'vat qilgan. Mo'g'ul xonimning bu gaplaridan so'ng hamma to'planganlar izza bo'ladi va qo'shinlar o'zlarining mag'lubiyatlari va xonlarining o'limi bilan yakunlangan jangga o'tlanadilar.

Tabiiyki, Muhammad Shayboniyxonning faoliyatini uning keyingi avlodlari davom ettirgan. Undan uch o'g'il farzand qolgan bo'lib, katta o'g'li Temur Sulton otasi tomonidan Samarqandda olib borilgan bunyodkorlik ishlari davom ettirgan. Ammo otasining vafotidan to'rt yil o'tib, u ham vafot etgan va madrasa qurilishi yana to'xtab qolgan. Shayboniyxonning ikkinchi o'g'li Zahiriddin Muhammad Boburning opasi Xonzoda begimdan tug'ilgan Xurram Mirzo bo'lib, u yoshlik paytida vafot etgan. Uchinchi o'g'li Sevinch Muhammad (asli ismi Abulxayr) otasi halok bo'lganda, yosh qolganligi tufayli, Shayboniyxon avlodlaridan Ubaydulla-xon qo'lida tarbiyalangan.

Shayboniyxonning bunyodkorlik ishlarini keyinchalik uning katta o'g'li Temur Sulton qolgan bo'lgan. Uning otasi Burunduxxon o'sha yillari ko'ngilli qo'shinlarning boshliqlaridan biri hisoblangan. Muhammad Shayboniy bilan Sirdaryo bo'y shaharlari uchun bo'lgan jangda bir necha marta to'qnash kelgan. Shayboniyxon bilan to'qnashuvlardan birida navbatdagi mag'lubiyatga uchragan Burunduxxon u bilan yovgarchilik qilish beryo ekanligini tushunib, boshqacha yo'l tutgan, ya'ni qizini Shayboniyxonning o'g'li Temur Sultonga nikohlab berdi. Mehr Sulton xonim keyinchalik Temur Sultonning suyuqli xotinlaridan biriga aylanadi.

Malika chala qolgan madrasani

bitkazish bilan bir qatorda, o'zi ham shu madrasaning shimoliy qismida ajoyib bir madrasa barpo etadi va ikki madrasani bir-biriga tutashtiradi. Shu bois bu madrasalar xalq orasida "qo'sh madrasa" yoki "madrasai xurjun" deb nomlangan. Qo'sh madrasaning kirish eshigi ustidagi ikkinchi qavatda noyob kitoblar to'plangan kutubxona ham bo'lgan.

Madrasa ikki alohida inshootdan iborat bo'lib, o'z davrida katta voqea bo'lgan. Bu haqda shoirlardan biri: "Bu qo'sh madrasa o'z mahobati bilan Misr ehromlariga (piramidalariga) o'xshaydi... Guyo egizaklar singari kishi qalbini quvontiradi... Misli go'zallarning ikki yanog'idek. Bu madrasalar Samarqand shohligini bezaydi va xizmat qiladi", - deya ta'rif beradi.

Mehr Sulton xonim madrasa binosi va undagi ta'lim jarayonini nazorat qilibgina qolmay, moddiy ta'minotiga ham katta e'tibor qaratgan. Bu haqda atroflicha ma'lumot beruvchi manba Mehr Sulton amri bilan tuzilgan va bizgacha yetib kelgan vaqf hujjatidir. Bu hujjat tarixchi olimi R.Mukminova tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilgan va matbuotda e'lon qilingan. Aslida vaqfnomaga kiritilgan juda katta mulk Muhammad Temur Sulton tomonidan Samarqand viloyatida tartib o'rnatish asnosida to'plangan edi.

Shuningdek, o'sha davrda mam-lakatning yangi hukumdari Suyunch Xo'ja xon (1510-yil) tomonidan Kesh, Nasaf, Hisor va Amudaryo qirg'oqlariga qadar bo'lgan hududlar Muhammad Temur Sulton ixtiyoriga topshiriladi. Bu hududlardan to'plangan katta mulklar ham uning vafotidan so'ng Mehr Sulton begim tomonidan vaqfnomaga kiritiladi.

"Vaqfnomai hazrati Shayboniyxon" deb nomlangan ushbu hujjatning bizga qadar ikkita qo'lyozma nusxasi yetib kelgan bo'lib, ulardan biri Sankt-Peterburg, ikkinchisi esa Toshkent nusxalari, deb yuritiladi. Vaqfnomaning tuzilish sanasi ko'rsatilmagan, faqat bir o'rinda Muhammad Temur Sultonning vafot etgan sanasi (1514-yil 14-mart) keltirilganligini inobatga olsak, hujjat uning vafotidan so'ng taxminan XVI asrning 20-yillarida tuzilgan ma'lum bo'ladi. Vaqfnoma o'rta asrlarda O'rta Osiyoda qabul qilingan an'anaviy uslubda bitilgan.

"Vaqfnomai hazrati Shayboniyxon"ning Sankt-Peterburg nusxasi o'sha davrda Samarqandda faoliyat olib borgan qozilarning imzosi va beshta muhri bilan tasdiqlangan.

"Vaqfnoma"da va o'sha davr tarixiy manbalarida Mehr Sulton xonim yuksak martabali saroy malikalariga beriladigan "Mahdi ulyo" unvoni bilan ham atalgan. Shuningdek, uni Mehribon xonim, Mehri xonim deb ham atashgan.

Hujjatda aytilishicha, madrasa Samarqand Chorsusi yonida joylashgan Bobo Xudoydod mahallasi hududida (hozirgi Registon maydonining shimolida Siyob bozori tomon boradigan yo'lining chap tomonida) joylashgan. Unda masjid va alohida kutubxona ham bo'lgan. Har ikkala madrasa 60 tadan tolibi ilmnig saboq olishiga mo'ljallangan.

Har 30 nafar talaba uchun bittadan mudarris tayinlangan va shunga bog'liq mu'it, musdir va boshqa xodimlar bo'lgan. Shuning barobarida Qur'oni karimni o'qish bo'yicha alohida mudarris tayinlangan. XVII asrning birinchi yarmida madrasada mudarris sifatida "Muzakkir ul-as'hob" (Suhbatdoshlar zikri) tazkirasining muallifi Muhammad Bade' Malih Samarqandiy faoliyat olib borgan. Bu insonning Shayboniyxon madrasasida faoliyat olib borishi bu yerda adabiyot, she'riyat nazariyasi, ilmi aruzning mukammal o'rganilganligidan dalolat beradi. Madrasada faoliyat olib borgan mudarrislar haqida so'z borar ekan, Zayniddin Vosifiy "Shayboniyxonning Samarqand Chorsusida bino qilingan madrasasiga to'rtta mudarris tayinlangan edi. Shulardan biri Mavlono Hojagiydir. Ikkinchisi "Til-lakori" madrasasining taniqli mudarrisi Abu Said Mullo Abdurahmondir", deb yozadi.

Ko'rinadiki, bu madrasada Ulug'bek tomonidan XV asrda qurilgan madrasaning birinchi mudarrislarining avlodlari bo'lmish olimlar talabalarga dars bergan. Malumotlarga ko'ra, talabalarga ta'lim berish barcha mashhur madrasalar tartib-qoidalariga monand tarzda olib borilgan: ular past, o'rta va oliy guruhlarga ajratilgan, har bir guruhda 20 nafar talaba bo'lib, ularning moliyaviy ta'minoti bir-biridan farq qilgan. Past guruh talabalariga yiliga 3000 dinor va 300 man oshlik (arpa, bug'doy), o'rta guruh talabalariga 3600 dinor, 450 man oshlik, oliy guruh talabalariga 5400 dinor va 600 man oshlik belgilangan.

Shayboniyxon va Mehri Sulton xonim madrasasi Shayboniyxon dahmasi vazifasini ham o'tagan. 1510-yilda Eron shohi Ismoil Safaviy bilan kechgan jangda halok bo'lgan Shayboniyxonning boshqich tanasi ham keltirilib, shu madrasa sathidagi dahmaga qo'yilgan. Bu dahmada Shayboniyxon sulolasiga mansub yana o'ndan oltin sulton va malikalar dafn etilgan. Ular orasida Mehr Sulton Xonim, uning eri va bir qancha qarindoshlari ham bor.

Tarixiy manbalarda aytilishicha, XVII asrning oxiri XVIII asrning boshlarida Samarqanddagi bir qator me'moriy obidalar o'zaro urushlar yoki qarovsizlik tufayli vayron bo'la boshlagan. Shu sababli taxminan 1637-1638-yillarda madrasa bir necha marta ta'mirlangan va inshootga yangi o'zgartirishlar kiritilgan.

XVII asrga kelib madrasa xarobaga aylangan, o'sha davr hukmdorlaridan Shohmurod (1785-1800) madrasani qayta ta'mirlashga farmon beradi. Bu ta'mirlash ishlaridan so'ng ham u dastlabki salobati, muhtasham ko'rinishini yo'qotadi. Keyinchalik, 1874-yilga kelib yo'l qurilishi sababli madrasaning bir qismi buzib tashlanadi.

Madrasa XX asrning boshlariga cha saqlangan va qisman faoliyat olib borgan. Ammo hozirgi kunda bu qo'sh madrasadan nom-nishon qolmagan.

**Mahkamoy TURSUANOVA,**  
**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori.**

## Qizlar nega janjalkash bo'lib ketyapti?

Bugunning gapi

O'quvchilik yillarimda qizlarning bir-biriga qo'l ko'targani, mushtlashganini ko'rmaganman. Oilalarda qiz bola tarbiyasiga jiddiy e'tibor berilar, ro'zg'or yumushlari o'rgatilardi. Hatto qiz bola baland ovozda gapirmaydi, deyishardi kattalar.

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda hali maktab o'quvchisi bo'lgan qizlarning o'zaro urushgani, mushtlashgani aks etgan video tasvirlarni ko'ryapmiz. Ko'cha-ko'yda ham onasi tengi ayolga gap qaytarayotgan qizlarni uchratib qolyapmiz. Biz bolaligimizda o'zimizdan kattaga gap qaytarishni xayolimizga ham keltirmasdik, chunki ota-onamiz kattalarga gap qaytarish mumkin emas, deb o'rgatishardi. Xo'sh, bugun voyaga yetmagan qizlarning ibo-hayosiz, janjalkashligiga sabab nima?

Yaqinda o'qib qoldim. Bir xorijlik kishi: "Sizlarning ayollaringizni juda urushqoq deb bilardim, unday emasga o'xshaydi", debdi. Nega bunday o'ylashini so'rashganida "Kino va seriallaringizda ayollar faqat bir-biri bilan urishadi-ku", deb javob beribdi.

To'g'risi, oltinga qimmat vaqtimni serial va kinolarga sarflashni istamayman. Ammo ba'zan qishloqqa mehmonga borganimda televizorda biror serialga ko'zim tushsa, qahramonlarning og'zidan chiqayotgan gap, voqealar rivojining tuturuqsizligi, ayniqsa, ayollarning makkora o'y-fikrlaridan asabim buziladi. Bular serial orqali odamlarga nimani o'rgatyapti, qani bu yerda ma'naviyat, insoniylik, qadr-qimmat, deymen. Nazarimda, qaynona-kelin janjali o'zbek seriallarining bosh mavzusi bo'lsa kerak. Negaki, har zamonda seriallarning biror qismini ko'rib qolsam ham, faqat qaynona zolim, kelin jabrlangan yoki buning aksini ko'rsatayotgan bo'ladi.

Turk seriallaridagi dabdabali hayotni gapirmasa ham bo'ladi. Yasan-tusan qilib, so'nggi modada kiyingan ayollar hali restoranda, hali kafeda o'tiradi. Ular qachon bolasini tarbiyalaydi, qachon ro'zg'or yumushlarini bajaradi, deb o'ylaysan kishi. Buning ustiga turk seriallaridagi sevgi-muhabbat bizning mentalitetimizga ham, madaniyatimizga ham to'g'ri kelmaydi. Xo'sh, televizordan tarbiya olayotgan yosh qizlardan biz nimani kutishimiz mumkin?

To'rt nafar qizim bor, - deydi Oqdaryo tumanidagi 27-umumiy o'rta ta'lim maktabining musiqa fani o'qituvchisi, xalq ta'limi a'lochisi Komila Qilicheva. - Qizlarimga maktabni bitirgach oddiy qo'l telefoni olib berganman. Institutda uchinchi kurs bo'lgach ko'p funksiyali, sensorli telefon olib berdim. Shunda ham ular erga bildirmagan holda telefonini tekshirib turardim. Ota-onalar, biz televizordagi dabdabali hayotni gapirmasa ham bo'ladi. Yasan-tusan qilib, so'nggi modada kiyingan ayollar hali restoranda, hali kafeda o'tiradi. Ular qachon bolasini tarbiyalaydi, qachon ro'zg'or yumushlarini bajaradi, deb o'ylaysan kishi. Buning ustiga turk seriallaridagi sevgi-muhabbat bizning mentalitetimizga ham, madaniyatimizga ham to'g'ri kelmaydi. Xo'sh, televizordan tarbiya olayotgan yosh qizlardan biz nimani kutishimiz mumkin?

To'g'ri, biz televideniya berilayotgan saviyasiz filmlarni taqiqlay olmaymiz. Bugun texnika taraqqiyoti davrida ayrimlar dunyoning istalgan mamlakati telekanallaridagi kino va ko'rsatuvlarni ko'ra oladi. Aslida ularning tasvirlar bizning teleko'rsatuvlarimizdan besh battar. Shuning uchun xorijliklar uyidagi televizorini dasturlab qo'yadi, farzandi undan faqat bolalarga oid kanallarni ko'ra oladi. Bizda ham ota-onalar mana shu usuldan foydalanishsa, yaxshi bo'lardi. Aslida hamma ota-ona ham farzandi tarbiyasiga befarq emas. Shunday ota-onalar borki, ular farzandlarining vaqtini maktabdan tashqari sport, repetitor, dars tayyorlash kabi mashg'ulotlarga taqsimlab qo'yan. Bunday talabchan ota-onalarning farzandlarida televizor ko'rishga deyarli bo'sh vaqt yo'q. Ammo bu kabi ota-onalar soni juda kam. Nima bo'lgan taqdirda ham farzand avvalo, tarbiyani oiladan oladi. Qizining oqila, sarishta, iboli bo'lishini istagan ona vaqtini farzandi tarbiyasiga sarflaydi. Qizi bilan dars tayyorlaydi, birgalikda uy yumushlarini bajaradi, uning biror vaqtini bo'sh qoldirmaydi. Bugun atrofmizda janjalkash qizlar paydo bo'layotgan ekan, bunga sabab ular tarbiyasidagi bo'shliqning mavjudligidir.

Xurshida ERNAZAROVA.

## Farzandga e'tibor berish bir kun kelib, albatta, mevasini beradi

Otam o'zlari yaxshi ko'rgan har bir narsani menga ham bo'lib berardi. Albatta, bu barcha otalar qiladigan ish. Lekin mening otam, hatto qadadagi ichib turgan suvlaridan ham menga ilinardi. Shirinlik yeb turgan bo'lsa, garchi shirinlik o'ta oz bo'lsa ham: "Qizim, shuni sen yeb qo'ygin, men to'yib qoldim", deb menga berardi. Vaholanki, shirinlikka deyarli qo'l urilmagani bilinib turardi.



O'ylaymanki, barcha otalar ham bu narsaga ahamiyat berishmaydi. Farzandga e'tibor berish bir kun kelib, albatta, mevasini beradi. Bo-



lar, ayniqsa, shaharda yashovchilar farzandi qayerdaligini bilish uchun maktabga telefon bilan yuboradi, ammo o'sha telefon oddiy bo'lishi kerak. Ba'zi ota-onalar qizlarining qo'lga qimmatbaho telefon olib beryapti. Yoshlar tarbiyasini buzadigan narsa telefon bilan televizor. Telefonda qizlar kimlar bilan yozishyapti, nimalarni ko'ryapti, bilmaysiz. Televideniya berilayotgan "Iqror" serialida bir ayolning ikkala qizi ham ikkinchi xotin bo'lib erga tegyapti. To'g'ri, film bundan to'g'ri xulosa chiqarish uchun ishlangan, ammo yoshlar xulosa qilmasdan, yengil hayotga qiziyapti.

Bugun onalarning ko'pchiligi xorijda yoki bozorda, qizlarning tarbiyasiga kam vaqt ajratyapti. Aslida ota-ona maktab bilan hamkorlikda ishlashi, farzandi tarbiyasini jiddiy o'ylashi kerak.

Ma'naviyat soati darslarida mavzuni hayotiy misollar bilan o'tishga harakat qilaman. Seriallardan to'g'ri xulosa chiqarishni tushuntiraman. O'quvchi qizlarga astoydil tushuntirilsa, albatta, tushunadi. Ammo onalar ham qizlariga vaqt ajratib, ular tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishi kerak.

MATBUOT UYI

Zarafshon

С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 548 nusxada chop etildi. Buyurtma 304. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

D.TO'XTAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda